



“MEHMONDO‘STLIK” KONSEPTI LINGVOMADANIY TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA

Usmonova Iroda Sobir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

2-bosqich magistranti

irodausmonova22@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada “Mehmondo‘stlik” konsepti zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiyaning o‘rganish predmeti sifatida leksik-semantik, kognitiv hamda assotsiativ sathlarda tadqiq etiladi. Konseptning ko‘p o‘lchovli mental birlik ekanligi, uning struktura qatlamlari (tushunchaviy, obrazli va qadriyatli) hamda lisoniy olam manzarasini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy madaniyatning tildagi reprezentatsiyasi o‘zbek tili misollari yordamida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, konsept, madaniyat, kognitiv tilshunoslik, lisoniy olam manzarasi.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni inson tafakkuri va madaniy tajribasi bilan bog‘liq holda o‘rganish muhim ilmiy tamoyillardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv doirasida shakllangan kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik fanlarida konsept tushunchasi markaziy ilmiy kategoriya hisoblanadi. Y.S. Stepanov konseptni “madaniyatning inson ongidagi asosiy hujayrasi” sifatida ta’riflab, unda bilim, tasavvur va baholash unsurlari mujassam ekanini ta’kidlaydi. V.A. Maslova konseptni milliy ong va til o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida izohlaydi, S.G. Vorkachev esa konseptning aksiologik, ya’ni qadriyatlar bilan bog‘liq tabiatiga alohida e’tibor qaratadi. A. Vejbitskaya tadqiqotlarida esa konseptlarning milliy-spesifik xususiyatlari semantik primitivlar orqali ochib berilgan.

Mazkur nazariy qarashlardan kelib chiqqan holda, mehmondo‘stlik konsepti o‘zbek xalqining milliy-madaniy ongini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy hodisa sifatida ilmiy tadqiqot predmeti bo‘la oladi. Mehmondo‘stlik faqatgina ijtimoiy xulq-atvor me’yori emas, balki xalqning tarixiy tajribasi, diniy-axloqiy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va estetik didini o‘zida mujassam etgan murakkab kognitiv tuzilma hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida til va madaniyat munosabatlarini N. Mahmudov o‘z tadqiqotlarida tilni milliy tafakkurning ifodasi sifatida talqin qilsa, Sh. Safarov pragmalingsvistik yondashuv orqali nutq va madaniyat munosabatini



yoritadi. Ushbu ilmiy qarashlar mehmondo'stlik konseptini lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish uchun mustahkam nazariy zamin yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har bir konsept murakkab tuzilishga ega. Bir tomondan, u konsept tuzilishiga tegishli barcha narsalarni o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, konsept tuzilishi "uni madaniy faktga aylantiradigan barcha narsalarni" [1], ya'ni etimologiya, tarix, zamonaviy assotsiatsiyalar, baholashlar va boshqalarni ham qamrab oladi.

Konseptning semantik tarkibi lingvistik belgining uning ifodaviy funksiyasi bilan bog'liq barcha pragmatik ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Lingvistik tushuncha semantikasining yana bir tarkibiy qismi bu so'zning kognitiv xotirasi: lingvistik belgining asl maqsadi va ona tilida so'zlashuvchilarning ma'naviy qadriyatlar tizimi bilan bog'liq semantik xususiyatlar" [2].

Mehmondo'stlik konseptining semantikasini o'rganadigan bo'lsak, konsept morfologik jihatdan o'zbek tiliga tojik tilidan olingan "mehmon" hamda "do'st" o'zaklaridan hosil qilingan. Etimologiyasiga ko'ra, "mehmon" oti asli "ulug'" ma'nosini anglatadigan [manestan] fe'lining [man] hozirgi zamon ma'nosidan tuzilganligi aytiladi. Shunga ko'ra, asli "ulug'sifat kishi" ma'nosini anglatgan so'z "ziyofatga kelgan kishi" ma'nosini bildiradi. O'zbek tiliga tojik tilidan o'tgan "do'st" sifati esa "ahillik", "totuvlik munosabati bilan bog'langan" kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu ikki o'zakning birlashmasidan hosil bo'lgan "mehmondo'st" qo'shma so'ziga esa etimologik lug'atda quyidagicha ta'rif beriladi: "Bu sifat tojikcha mehmon oti bilan "inoq", "yoqtiradigan" ma'nosini anglatuvchi do'st sifatidan tuzilgan bo'lib, "mehmon chaqirishni sevadigan" ma'nosini anglatadi. Bu sifatdan o'zbek tilida mehmondo'stlik mavhum oti yasalgan [3.13] Shu ma'noda mehmondo'stlik konsepti o'zbek xalqi qadriyatlar tizimidan chuqur o'rin olgan do'stlik, ahil-inoqlik, bag'rikenglik, ochiq ko'ngillilik singari assotsiatsiyalarni ham anglatadi.

"Mehmondo'stlik" konsepti o'zbek tilida keng semantik maydonga ega bo'lib, u bir qator asosiy va qo'shimcha ma'nolar hamda sinonimik birliklar orqali ifodalanadi. "Mehmondo'stlik" konseptining asosiy (yadro) ma'nosi – mehmonni samimiy kutib olish, unga izzat-ikrom ko'rsatish, hurmat bilan xizmat qilish kabi mazmunlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'no konseptning barqaror va umumxalq tomonidan tan olingan asosiy semantik komponentidir.

Shu bilan birga, mazkur konseptning qo'shimcha ma'nolari ham mavjud bo'lib, ular kontekstga qarab namoyon bo'ladi:

- saxiylik va qo'li ochiqlik;
- bag'rikenglik va ochiqko'ngillik;
- samimiylik va do'stona munosabat;
- mehmonni xursand qilishga intilish;



– ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash vositasi.

Qo‘shimcha ma’nolar konseptning mazmunini kengaytiradi va uning emotsional hamda baholovchi jihatlarini kuchaytiradi.

“Mehmondo‘stlik” konsepti o‘z mazmuniga yaqin bo‘lgan bir qator leksik birliklar bilan semantik aloqaga kirishib ma’nodoshlik hosil qiladi. Ushbu sinonimik qatorlar konseptning turli qirralarini yoritishga xizmat qiladi:

- saxiylik – moddiy va ma’naviy jihatdan boshqalarga berishga tayyorlik;
- ochiqko‘ngillik – samimiylik va beg‘ubor munosabat;
- bag‘rikenglik – boshqalarga nisbatan kenglik va sabr-toqat;
- mehri-daryo (mehribonlik) – iliq va g‘amxo‘r munosabat;
- mehmonnavozlik – mehmondo‘stlikka ma’nosi aynan yaqin tushuncha sifatida bevosita sinonim hisoblanadi.

Biroq bu birliklar to‘liq sinonim emas, balki “mehmondo‘stlik” konseptining alohida semantik jihatlarini aks ettiradi. Masalan, “saxiylik” ko‘proq moddiy berishga urg‘u bersa, “ochiqko‘ngillik” emotsional jihatni ifodalaydi.

Mehmondo‘stlik konsepti o‘zbek tilida turli sathlarda turlicha verbalizatsiyalanadi: leksik sathda (mehmon, mezbbon, mehmondo‘st, mehmonnavozlik, dasturxon), frazeologik va paremiologik birliklarda (mehmon otangdan ulug‘, mehmon kelsa – baraka kellar), shuningdek, marosim nutqi, og‘zaki muloqot shakli va badiiy matnlarda. Ushbu til birliklari konseptning yadro va periferik qatlamlarini, uning aksiologik (ijobiy baholovchi) va emotsional-ekspressiv xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Vorkachev konsepsiyasiga ko‘ra, aynan aksiologik komponent konseptni milliy-madaniy hodisa sifatida belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Shuningdek, mehmondo‘stlik konsepti diskursiv jihatdan ham muhim tadqiqot obyekti sanaladi. U oilaviy-maishiy diskurs, marosim diskursi, diniy va badiiy diskurslarda turlicha pragmatik ma’no kasb etadi. Zamonaviy nutq jarayonida esa ushbu konseptning an’anaviy va o‘zgargan shakllari kuzatiladi. Bu holat konseptning dinamik tabiatga ega ekanini, ya’ni jamiyat taraqqiyoti bilan birga mazmunan boyib yoki qisqarib borishini ko‘rsatadi.

Demak, mehmondo‘stlik konsepti lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik va pragmalingvistika kesishgan nuqtada joylashgan murakkab ilmiy hodisa bo‘lib, uni tadqiq etish o‘zbek xalqining milliy-madaniy qadriyatlarini, tilning madaniy funksiyalarini va konseptual tafakkur tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu jihatdan, mehmondo‘stlik konsepti o‘zbek tilshunosligida mustaqil va dolzarb ilmiy tadqiqot predmeti sifatida



alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslikda konsept tuzilishini aniqlash masalasi muhim metodologik ahamiyatga ega. Z.D.Popova hamda I.A. Sternin tadqiqotlarida konseptlar yadro (markaziy) va periferik (yaqin va uzoq) qatlamlardan iborat murakkab kognitiv tuzilma (konseptosfera) sifatida talqin qilinadi [4.68]. Ushbu nazariy yondashuv asosida mehmondo'stlik konseptining kognitiv modeli quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Konsept yadrosi. Mehmondo'stlik konseptining yadrosini konseptning asosiy va barqaror ma'nosini ifodalovchi birliklar tashkil etadi. Bu qatlamga mehmon va mezbun tushunchalari, shuningdek, ularning o'zaro munosabatini belgilovchi hurmat, izzat-ikrom va qabul qilish kabi semantik komponentlar kiradi. Ushbu birliklar konseptning eng umumiy va universal mazmunini ifodalaydi hamda tilning barcha davrlarida nisbatan barqaror holda saqlanib keladi.

Yadro birliklari: – *mehmon, mezbun, mehmondo'st, qabul qilmoq, mehmonni hurmat qilish, uni samimiy kutib olish, izzat-ikrom ko'rsatish, mehmonni qadrlash (yuksak maqom berish)* va shu kabilar.

2. Yaqin periferik qatlam – yadro bilan bevosita bog'liq, lekin har doim ham majburiy bo'lmagan belgilar. Yaqin periferik qatlam mehmondo'stlik konseptining madaniy va aksiologik jihatlarini boyituvchi, ammo yadroga nisbatan nisbatan o'zgaruvchan bo'lgan komponentlardan iborat. Bu qatlamda mehmondo'stlik bilan bog'liq axloqiy me'yorlar, ijtimoiy majburiyatlar va marosim elementlari mujassamlanadi.

Yaqin periferik birliklar: – *dasturxon yozish, dasturxon yozish, choy tortish, milliy taomlar bilan siylash, mehmonni yuqori joyga o'tkazish, samimiy suhbat, xizmat, saxovat, baraka, duo, savob.*

3. Uzoq periferik qatlam kontekstga bog'liq, individual yoki vaziyatga qarab o'zgaradigan belgilarni o'z ichiga oladi. Uzoq periferik qatlam mehmondo'stlik konseptining tarixiy, diniy, ijtimoiy va individual tajriba bilan bog'liq komponentlarini o'z ichiga oladi. Bu qatlam birliklari konseptning emotsional-ekspressiv va ramziy mazmunini shakllantiradi hamda nutq va diskursga bog'liq holda faollashadi.

Uzoq periferik birliklar: – *sovg'a berish yoki olish, mehmon uchun maxsus tayyorgarlik (uy bezash, ortiqcha xarajat qilish), mehmonni kuzatib qo'yish marosimlari, zamonaviy shakllar urf-odat, marosim, obro', nomus, qo'ni-qo'shnichilik, qarindoshlik, mehmon kelsa – baraka kelar.*

4. Aksiologik (baholovchi) komponent. Mehmondo'stlik konseptining barcha struktura qatlamlarini birlashtiruvchi asosiy unsur – uning ijobiy baholovchi xususiyatidir. O'zbek tilida mehmondo'stlik axloqiy fazilat, savobli amal va milliy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Bu baholash maqol-matallar,



diniy nutq va badiiy matnlarda aniq namoyon bo'ladi.

5. Emotsional-ekspressiv komponent. Mazkur komponent mehmondo'stlik konseptining hissiy jihatini aks ettiradi. Quvonch, mamnuniyat, hurmat, faxr kabi emotsiyalar konsept mazmunining ajralmas qismi bo'lib, nutqda intonatsiya, baholovchi so'zlar va tasviriy vositalar orqali ifodalanadi.

Mehmondo'stlik konseptining sxematik modeli quyidagicha bo'ladi:

Mazkur struktura modeli mehmondo'stlik konseptining ko'p qatlamli va dinamik tabiatga ega ekanini ko'rsatadi. Yadro qatlam konseptning asosiy mazmunini ifodalasa, periferik qatlamlar uning milliy-madaniy, aksiologik va emotsional jihatlarini boyitadi. Ushbu model o'zbek tilidagi boshqa milliy-madaniy konseptlarni tahlil qilishda ham metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Konseptning assotsiativ va obrazli qatlami esa uning inson ongida qanday aks etishini, ya'ni mazkur tushuncha bilan bog'liq tasavvurlar, hissiy munosabatlar hamda ramziy ifodalarni o'rganishga xizmat qiladi. Lingvomadaniy yondashuvda aynan ushbu qatlam konseptning milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. "Mehmondo'stlik" konsepti ham o'zbek xalqining tarixiy-madaniy tajribasi asosida shakllangan bo'lib, boy assotsiativ va obrazli tizimga ega. "Mehmondo'stlik" konsepti o'zbek milliy ongida ijobiy baholovchi mazmunga ega bo'lib, u ko'proq axloqiy me'yor va ijtimoiy qadriyat sifatida anglanadi. Ushbu konsept bilan bog'liq asosiy tasavvurlar quyidagilardan iborat:

- mehmonni ochiq chehra va samimiyat bilan kutib olish;
- uy eshigining doimo mehmon uchun ochiqligi;
- dasturxonning to'kinligi va barakadorligi;
- mehmonni hurmat joyiga o'tkazish;
- mehmon bilan iliq va samimiy muloqot o'rnatish.

Mazkur tasavvurlar orqali "mehmondo'stlik" konsepti xalq ongida nafaqat ijtimoiy xulq-atvor modeli, balki ma'naviy-axloqiy qadriyat sifatida shakllanganligi namoyon bo'ladi.

Konseptning obrazli qatlami ko'pincha ramzlar va metaforalar orqali ifodalanadi. "Mehmondo'stlik" konsepti ham o'zbek tilida turli ramziy va obrazli birliklar vositasida namoyon bo'ladi.

dasturxon – saxovat, to'kinlik va hurmat timsoli;

non va choy – mehmonni kutib olishning ajralmas belgisi, samimiyat ifodasi;

ochiq eshik – mehmonlarga doimiy tayyorlik va ochiqko'ngillik ramzi;

uy – tinchlik, ilqlilik va mehmon uchun boshpana sifatida talqin etiladi.

"Mehmon – qut-baraka olib keladi" – mehmonni farovonlik manbayi sifatida talqin qilish;



“Mehmon otangdan ulugʻ”– mehmon maqomini yuksaltiruvchi obrazli ifoda;

“Dasturxon yozildi” – mehmondoʻstlik jarayonining boshlanishini bildiruvchi metafora.

Ushbu ramz va metaforalar orqali “mehmondoʻstlik” konsepti konkretlashadi, yaʼni u abstrakt tushunchadan obrazli va hissiy jihatdan boy mazmunga ega boʻlgan lingvomadaniy birlikka aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, “Mehmondoʻstlik” konseptining assotsiativ va obrazli qatlami uning milliy ongdagi aksini, hissiy-baholovchi va ramziy xususiyatlarini ochib beradi. Ushbu qatlam orqali konsept obrazlar orqali konkretlashadi, ramzlar orqali madaniy mazmun kasb etadi, metaforalar orqali baholovchi va emotsional rang oladi. Buning natijasida “mehmondoʻstlik” konsepti oʻzbek xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy fenomen sifatida namoyon boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры / Ю. С. Степанов. М., 2001.
2. Яковлева, Е. С. О понятии «культурных память в применении к семантике слова /Б.С Яковлева // Вопросы языкознания. 1998.-№3.
3. Шавкат Рахматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2009. – 283 б.
4. Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 226 с.